



BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH DAVRI VA UNING BOSQICHLARI HAMDA XUSUSIYATLARI

Malikov Sharifjon O'ktam o'g'li

TDTUning Yurisprudensiya

Xalqaro transport huquqi yo'nalishi talabasi

Akbarova Laylo Upashevna – ilmiy rahbar

Transport iqtisodiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

Anonatsiya: Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari, bozor vazifalari va tuzilishi, bozorning turlari, va iqtisodiy afzalliklari.

Kalit so'zlar: bozor, bozor munosabati, bozor munosabatiga o'tish modeli, tadbirkorlik va tanlov erkinligi, raqobat hamda tejamkorlik.

Har bir mamlakat rivojlanishi va uning boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabati, hamda mavqeyi albatta bozor munosabati bilan bog'liq. Darhaqiqat bugungi kunga kelib, bozor iqtisodiyoti jadal sur'atlarda rivojlanib, har tomonlama takomillashib bormoqda.

Bozor iqtisodiyoti - bu tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomilasi qonun- qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek bozor iqtisodiyoti dunyoning deyarli barcha mamlakatlari uchun xos bo'lib, u turli xil darajada va o'ziga xos xususiyatlari bilan ortib bormoqda. Bu iqtisodiyotning amal qilish mexanizmi, ko'plab asrlar davomida shakllanib, hozirgi kunda madaniylashgan.

Bozorning iqtisodiy afzalliklari shundaki ya'ni resurslardan samarali oqilona foydalanish, erkinlikni ta'minlash, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, xo'jasizlik va isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik.

1991- yil O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach birinchi navbatda iqtisodiyotni tubdan yangilash hamda aholini turmush sifatini yaxshilash mamlakatda oziq ovqat, qishloq xo'jaligi sanoat, ishlab chiqarishni o'z oldiga maqsad qilib oldi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov bozor iqtisodiyotiga quyidagicha fikr bildirgan edi. " Bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analar, urf-odatlar va turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tishdagi iqtisodiyotni bir yoqlama besonaqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga



asoslanadi" deb ta'kidlab o'tgan edi. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish yo'li ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan edi. Shu maqsadda I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan beshta ustuvor tamoyil ya'ni o'zbek modeli asos qilib olingan edi.

1. Iqtisodning siyosatdan ustunligining ma'nosi shuki, iqtisod hech qachon siyosatdan ortda qolmasligi kerak, ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi qilish kerak.

2. O'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lmog'i lozim. Davlat islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi shart.

3. Qonun ustuvorligiga erishish demokratik yo'l bilan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz barcha hurmat qilishi va itoat etishi lozim.

4. Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish yo'li bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash, yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim.

5. Bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun revolyutsion yo'l bilan bosqichma- bosqich amalga oshirilishi kerak.

Erkinlashtirish bu - xo'jalik hayotining barcha sohalaridagi to'siq hamda cheklovlarni shuningdek, davlat nazoratini keskin ravishda qisqartirish yo'li bilan bekor qilishga yo'naltirilgan chora- tadbirlar tizimidan iborat albatta.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerak, bugungi kunda mamlakatimizda Iqtisodiy o'zgarishlar hamda qabul qilinayotgan qonunlar o'z natijasini bermoqda. Har qanday davlat kuchli bo'lishi uchun avvalombor bor iqtisodiyoti barqaror har tomonlama rivojlangan bo'lishi lozim deb baholayman. Iqtisodi rivojlanmagan yetarlicha o'zida kuch to'play olmagan har qaysi davlat yuksalishdan ortda qolaveradi, bu oddiy xalqning turmush tarzini izdan chiqarishi shak shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.SH.SH.Shodmonov, U. V.G'afurov. " Iqtisodiyot nazariyasi" Tosh. 2005.
- 2.K.Yu. Umarov, P.Z. Xoshimov. " Iqtisodiyot nazariyasi" Tosh. 2006.
- 3.I.A. Karimov. "Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lidan" 1995.